



UDK:81.2

Istoda RASULOVA,
Samarqand davlat universiteti O'zbek tilshunosligi dotsenti
E-mail: istoda.87@gmail.com

DSc, professor B.Qurbonova taqrizi ostida

**O'ZBEK VA RUS TILLARIDA MILLIY O'ZIGA XOSLIKNING LINGVOKULTUROLOGIK KONTRASTIV
TAHLILI**
Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek va rus tillaridagi milliy o'ziga xoslikning lingvokulturologik ifodalanishi kontrastiv tahlil asosida o'rganiladi. Tilning mazmuniy birliklari lingvomadaniy kod sifatida xalqning qadriyatlarini, urf-odatlarini va mentalitetini aks ettirishi ko'rsatib beriladi. Tadqiqot davomida o'zbek tiliga xos "Keling", "Charchamang" kabi iboralar rus tilidagi ekvivalentlari bilan qiyoslanadi va ularning madaniy konnotatsiyasi tahlil qilinadi. Natijalardan ko'rinadiki, ba'zi iboralarni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish ularning asl mazmunini bera olmaydi, shu sababli ularni madaniy izoh bilan tushuntirish zarur. Maqola lingvokulturologik tahlilning tarjimashunoslik, lingvodidaktika va madaniyatlararo kommunikatsiya uchun nazariy va amaliy ahamiyatini yoritib beradi.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, kontrastiv tahlil, milliy o'ziga xoslik, madaniy kod, o'zbek va rus tili, tarjima, madaniyatlararo kommunikatsiya, milliy konnotatsiya.

**ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ КОНТРАСТИВНЫЙ АНАЛИЗ НАЦИОНАЛЬНОЙ САМОБЫТНОСТИ В
УЗБЕКСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ**

Аннотация

В данной статье проводится контрастивный анализ лингвокультурного выражения национальной самобытности в узбекском и русском языках. Показано, что содержательные единицы языка, выступая в качестве лингвокультурного кода, отражают ценности, традиции и менталитет народа. В процессе исследования сопоставляются такие характерные для узбекского языка выражения, как «Келинг», «Чарчаманг», с их русскими эквивалентами, анализируются их культурные коннотации. Результаты показывают, что дословный перевод некоторых выражений не способен передать их подлинный смысл, поэтому необходим культурный комментарий. В статье раскрывается теоретическое и практическое значение лингвокультурологического анализа для переводоведения, лингводидактики и межкультурной коммуникации.

Ключевые слова: лингвокультурология, контрастивный анализ, национальная самобытность, культурный код, узбекский и русский языки, перевод, межкультурная коммуникация, национальная коннотация.

**LINGUOCULTUROLOGICAL CONTRASTIVE ANALYSIS OF NATIONAL IDENTITY IN THE UZBEK AND
RUSSIAN LANGUAGES**

Annotation

This article presents a contrastive analysis of the linguocultural expression of national identity in the Uzbek and Russian languages. It demonstrates that the semantic units of a language, functioning as linguocultural codes, reflect the values, traditions, and mentality of a people. During the study, Uzbek expressions such as "Keling" and "Charchamang" are compared with their Russian equivalents, and their cultural connotations are analyzed. The findings show that direct translation of some expressions cannot convey their true meaning; therefore, cultural explanation is required. The article highlights the theoretical and practical significance of linguocultural analysis for translation studies, language teaching, and intercultural communication.

Key words: Linguoculturology, contrastive analysis, national identity, cultural code, Uzbek and Russian languages, translation, intercultural communication, national connotation.

Kirish. Til insoniyatning ma'naviy madaniyati bilan boshqa belgi tizimlari qatori chambarchas bog'liq bo'lib, uning mohiyati va o'ziga xosligi haqida ko'p narsalarni aytib bera oladi. Tilning mazmuniy birliklari lingvomadaniy kodni tashkil qiladi. Bu kod — ma'lum bir til jamoasiga xos, tarixiy sharoitda shakllangan dunyoni idrok etish va anglash xususiyatlarini aks ettiruvchi, o'zaro bog'langan ma'nolar tizimidir. Antropotsentrik tilshunoslik, ya'ni markazida inson turgan yondashuv, til hodisalarini turli ko'rinishlarda ilmiy izlashga asoslangan eng istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishning muhim tarmoqlaridan biri lingvokulturologiya (lisoniy madaniyatshunoslik) bo'lib, u tilni "til – madaniyat – inson" uchligi asosida o'rganadi. Mazkur fan tilning milliy ong, milliy tafakkur, milliy madaniyat, milliy

ma'naviyat, milliy mentalitet va milliy xarakter kabi ko'plab tushunchalarning shakllanishida asosiy omil ekanligini ko'rsatadi. Chunki til mavjud bo'lmasa, mazkur tushunchalarning mohiyati ham to'laqonli namoyon bo'la olmaydi [5].

Shuni e'tiborga olish kerakki, oddiy inson o'z hayotining katta qismini turli madaniy namunalarini takrorlab, jamiyat tomonidan belgilangan xulq-atvor andozalariga amal qilib o'tkazadi. Shunga ko'ra, agar qandaydir qadriyat, e'tiqod, ishonch yoki bilim avloddan-avlodga o'tib, til orqali ifodasini topgan bo'lsa, bu holat mazkur tajriba shakllarining madaniy ahamiyatini tasdiqlash uchun yetarli mezon hisoblanadi. Haqiqatan ham, "ma'naviy madaniyat obyektiv mental tuzilma sifatida insonlarga ta'sir ko'rsatadi, ularning qadriyat-

mazmunini yo'nalishlarini sezilarli darajada belgilab beradi" [3].

Tilshunoslikda esa tildagi milliy o'ziga xoslikni, ko'pincha so'z semantikasi misolida, madaniyat prizmasidan o'rganish an'anasi allaqachon shakllangan. A. Gudavichyus fikricha, leksik semantika doirasida madaniyatni aks ettirishning "yuza" va "chuqur" darajalari mavjud. Tadqiqotchining ta'rifi ko'ra, madaniyatning yuzaki darajada aks etishi — bu xalq madaniyatiga xos xususiyatlarning bevosita leksik birliklarda namoyon bo'lishidir (masalan, ekvivalenti bo'lmagan leksika) yoki bunday birliklarning xarakterida (so'z yasashdagi motivatsiya, metaforalashuv). Madaniyatning chuqur darajada aks etishi esa "so'z ma'nosining tabiatida mujassam bo'lib, u ikkilamchi referensiya jarayonida voqelik obyektlari (yoki konseptlari)ni bildiruvchi qisqartirilgan tushuncha sifatida namoyon bo'ladi" [1].

A. A. Leontyev milliy til o'ziga xosligini belgilovchi omillar tizimini ajratib ko'rsatadi. Unga ko'ra, bu omillar tarkibiga *"madaniy an'ana va ijtimoiy vaziyat bilan bog'liq omillar, shuningdek, muayyan jamoaning tiliga xos bo'lgan omillar"* kiradi [2].

Madaniyatning tilda aks etishi, til va madaniyatning o'zaro aloqadorligi kabi masalalar bilan bog'liq tadqiqotlarning metodologik asosi yaqin yillardan e'tiboran o'rganila boshlandi. Bunday tadqiqotlar jumlasiga V.V. Vorobyev, V.M. Shaklein, V.N. Teliya, V.A. Maslovalarning ilmiy asarlari mansub, o'zbek tilshunoslik ilmidagi ham bu yo'nalishda qator ishlar olib borilmoqda [8]. Xususan, o'zbek tilshunosligida lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishi, madaniyatning tilda aks etishi kabi qator masalalarga qaratilgan dastlabki ishlar sifatida A. Nurmonovning «O'zbek tilida lingvokulturologik yo'nalish», N. Mahmudovning «Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab», N. Sayidrahimovanning «Lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishiga doir ayrim mulohazalar», «Lingvokulturologiyaning komponentlari» nomli maqolalarini, D. Xudoyberganovanning «Matnning antropotsentrik tadqiqi» mavzusidagi monografiyasi bu yo'nalishning rivojlanishida o'z hissasini qo'shdi [6]. Keyingi yillarda Z.I. Solievaning nomzodlik ishi o'zbek va frantsuz tillaridagi sententsiya, ya'ni axloqiy-ta'limiy xususiyatdagi matnlarning milliy-madaniy xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lsa [4], R.S. Ibragimovanning nomzodlik dissertatsiyasida esa ayol konseptining o'zbek va frantsuz tillarida ifodalanish yo'llari tadqiq etilgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, til birliklari semantikasidagi milliy o'ziga xoslikning barchasi ham ma'lum xalq madaniyatining til semantikasida aks etishi bilan izohlanavermaydi. Milliy til xususiyatlari bilan bog'liq muammolarni tadqiq etishda, turli mualliflar tomonidan semantik hamda lingvomadaniy tadqiqotlarda berilgan ko'plab ta'riflardan ko'ra, madaniyatning torroq talqinini qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Bunda madaniyat, avvalo, ma'naviy madaniyat sifatida tushuniladi, ya'ni qadriyatlar, prinsiplari, normalar va qoidalar, kundalik hayotdagi andozaviy xulq-atvorni belgilovchi marosimlar, shuningdek, adabiyot va san'at asarlari (badiiy madaniyat) nazarda tutiladi.

O'zbek xalqining og'zaki ijodida va adabiy manbalarida qadimiy e'tiqodlarning, jumladan, totemistik qarashlarning izlari uchraydi. Masalan, folklorshunos Sh. Turdimov "Go'ro'g'li" dostoni asosida G'iro't timsolini sharhlar ekan, otning "xudo" – totem sifatida anglanishi turkiy xalqlarda keng tarqalganini ta'kidlaydi. Ot qadimda quyosh ma'budining ramzi hisoblangan, keyinchalik esa tangriga qurbonlik sifatida tanlangan [3].

Qadim ajdodlarimiz hayvonlarning chidamliligi, tezkorligi, ba'zan esa ularning oldidagi insoniy qo'rquv sababli

bo'ri, arslon, tuya, qo'y, ilon, burgut, xo'roz, musicha kabi hayvon va qushlarni alohida e'zozlashgan. Shu jarayonda ular ramzga aylangan va xalq ongida mustahkam milliy obraz maqomini olgan. Masalan, o'zbek madaniyatida **musicha** metaforasi beozorlik ramzi sifatida shakllangan. N. Mahmudov bu haqda shunday deydi: *"Musichaday o'xshatish etalonida milliy-madaniy konnotatsiya mavjud. Unda beozorlik belgisi o'zbek xalqiga xos tarzda ta'kidlangan"* [7]. Shu bilan birga, musichaga oid islomiy rivoyatlar ham uning ramziy timsol sifatida xalq ongiga kirib kelishiga zamin yaratgan. Natijada "musichaday beozor" ifodasi beozorlikning milliy o'Ichoviga aylangan.

O'zbek va rus tillari o'rtasidagi aloqalar so'nggi ikki asr davomida jadallik bilan rivojlandi. Buning sabablari orasida Turkistonning Rossiya tomonidan bosib olinishi, sho'ro davridagi markazlashgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi hamda mustaqillikdan keyin ham sobiq metropoliya bilan do'stona munosabatlarning saqlanib qolishi muhim o'rin tutadi. Shu jarayonda ikki tilda turli vaziyatlarda qo'llaniladigan o'ziga xos lisoniy birliklar, so'z va iboralar shakllandi. Ular millatlarning turmush tarzi, urf-odatlar, mentaliteti va eng avvalo, insonlarning ichki his-tuyg'ulari hamda muloqot jarayonlaridagi ramziy ifodalarini namoyon etadi.

Bunday birliklarni boshqa tilga to'liq tarjima qilish har doim ham imkoni bo'lmagan hollarda, ularni rusiyazabon xorijiy tinglovchilarga izohlash orqali tushuntirish zarur. Masalan, o'zbek lisoniy madaniyatida tez-tez uchraydigan **"Keling"** yoki **"Kelinglar"** iboralar odatda "приходите" shaklida tarjima qilinadi. Ammo o'zbek xalqining mehmondo'stlik qadriyatlariga sababli bu ibora kundalik hayotda – ko'chada, do'konda, bog'da tanish-bilishlarni uchratganda samimiy taklif sifatida qo'llanadi. Rus madaniyatida esa "Приходите в наш дом" iborasi taklifning aniq vaqti yoki sababi borligini anglatadi, shuning uchun u norasmiy salomlashuv shaklida ishlatilmaydi.

Xuddi shunday, o'zbeklar o'zaro xayrlashayotganda aytadigan **"Charchamang"** iborasi rus tiliga "Не уставайте" tarzida tarjima qilinadi. O'zbek madaniyatida bu so'z oddiy ezgu tilak bo'lib, suhbatdoshning charchaganligini bildirmaydi. Ammo rus tilida bu ifoda biroz g'alati eshitiladi, chunki ularning madaniyatida bunday tilak odat tusiga kirmagan. Aksincha, ular bir-biriga "удачи вам" (Omad yor bo'lsin), "хорошего вам настроения" (Yaxshi kayfiyat tilyaman) yoki "Бог вам в помощь" (Alloh sizga madadkor bo'lsin) kabi iboralarni ishlatadi.

Xulosa. Til va madaniyatning o'zaro aloqadorligi, milliy o'ziga xoslikning lingvokulturologik ifodalanishi o'zbek va rus xalqlari misolida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, lisoniy birliklar nafaqat semantik, balki madaniy kod sifatida ham xizmat qilib, xalqning qadriyatlarini, urf-odatlarini va mentalitetini aks ettiradi.

O'zbek tilidagi **"Keling"**, **"Charchamang"** kabi iboralar milliy mehmondo'stlik va samimiylikni ifodalaydi. Rus tilida esa ularning to'g'ridan-to'g'ri tarjimasi mazmunan to'liq mos kelmaydi va ularni o'z madaniyatiga xos iboralar bilan almashtirish talab etiladi. Shu bois kontrastiv tahlil lingvokulturologik tafovutlarni aniqlashda, tarjima jarayonida ekvivalent vositalarni tanlashda va chet elliklarga tilni samarali o'rgatishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, milliy o'ziga xoslikni lisoniy birliklar orqali tadqiq etish madaniyatlararo kommunikatsiyaning samarali shakllanishiga xizmat qiladi. O'zbek va rus tillarining lingvokulturologik kontrastiv tahlili xalq ongida shakllangan qadriyatlarini taqqoslash, turli ramz va timsollarning milliy ma'nolarini ochib berish, shuningdek, madaniyatlararo muloqot jarayonida o'zaro tushunishni chuqurlashtirish uchun muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Гудавичюс А. Универсальное и специфическое в лексическом значении // *Slavia*. XLIX. — Praha, 1980. № 2. С. 52–67.
2. Леонтьев А. А. Основы психолингвистики. — М.: Смысл, 1997. 287 с.
3. Поппер К. Логика и рост научного знания (*Logik der Forschung*) / пер. с нем. — М.: Прогресс, 1983. 605 с.
4. Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально-культурная специфика сентенции в английском и узбекском языках: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. — Ташкент: УЗГУМЯ, 2010. — С. 25.
5. Mahmudov N. O‘xshatishlarda milliy mentallik jozibasi // *Til va adabiyot ta’limi*. — 2019. — № 2. — B. 5–8.
6. Mahmudov N. — Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...// *O‘zbek tili va adabiyoti*. — Toshkent, 2012. -№5
7. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. — Toshkent: Ma’naviyat, 2013. 10–11-betlar
8. Rasulova I. Lingvomadaniy interferensiya hamda uni bartaraf etish yo‘l-yo‘riqlari. *Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi*. — Samarqand, 2021. — B. 51.
9. Turdimov Sh. “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari. — Toshkent: Fan, 2011. — B. 117.